

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 311.175 (575.1)

ZAKIROVA UMIDA MAXAMADAMINOVNA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'IDAGI
TARKIBIY O'ZGARISHLARNING STATISTIK BAHOLASH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi: i.f.d., professor
G.Q. Abduraxmanova**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	15
1.1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	15
1.2. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining tarkibiy o‘zgarishlarini statistik o‘rganishning nazariy asoslari.....	24
1.3. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va ularning tavsifi.....	33
<i>Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	45
II BOB: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING TARKIBIY FAOLIYATINI IFODALOVCHI STATISTIK KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	46
2.1. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi asosiy tendensiyalar va ulardagi tarkibiy o‘zgarishlarni iqtisodiy-statistik tahlili...	46
2.2. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi tashkiliy-huquqiy asoslar.....	58
2.3. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligidagi mahsulot (xizmat)lar yetishtirish jarayonlaridagi tarkibiy o‘zgarishlarni xo‘jalik shakllari bo‘yicha iqtisodiy-statistik tahlili.....	72
2.4. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.....	85
<i>Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	101
III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING SAMARADORLIGI VA TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	103
3.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini kompleks statistik baholash.....	103
3.2. Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyat va uni statistik tadqiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	122
3.3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonlarini dinamika qatorlari usulidagi tahlilini takomillashtirish.....	146
<i>Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	158
IV BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH.....	160
4.1. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlarini ko‘p omilli statistik usullarda tahlil qilishni takomillashtirish.....	160
4.2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonlarini ekonometrik modellarini tuzish.....	183
4.3. Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy holati ko‘rsatkichlarining statistik tahlilini takomillashtirish.....	195
<i>To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	207
XULOSA.....	208
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	214
ILOVA.....	223

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish ushbu sohalar tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlarning barqarorligini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda dunyoda qishloq xo'jaligiga oid taxminan 40 turdagi faoliyat mavjud bo'lib, 100 dan ortiq yo'nalishlar agrobiznes shakllariga muvofiq faoliyat yuritmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, global qishloq xo'jaligining ulushi salmoqli bo'lib, u jahon yalpi mahsulotining qariyb 5 foizini tashkil etadi. Prognoz ma'lumlari shuni ko'rsatadiki, 2050-yilga borib, jahon aholisi 9,1 mlrd kishiga yetishi mumkin. Bu holatda jahon aholisining go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabi hozirgi kunga nisbatan 2,5-3,0 barobarga ortishi kutilmoqda¹.

Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya va Isroil kabi mamlakatlar qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari va innovatsion siyosiy yechimlardan samarali foydalanmoqda. Xususan, agroiqtisodiy monitoring agentliklarining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda yuzlab qishloq xo'jaligi hududlarida "davlat qishloq xo'jaligi dasturlari va innovatsiyalarga asoslangan fermerlik modellari" tatbiq etilgan bo'lib, ularda klaster asosidagi boshqaruv yondashuvi sezilarli ulushni, texnologik innovatsion yechimlar esa muhim ulushni tashkil etgan. Bundan tashqari, iqtisodiy-statistik baholash mexanizmlari aniq bir segmentni, qolgan qismi esa boshqa zamonaviy qishloq xo'jaligi vositalari hisobiga to'ldirilgan. Strategik rivojlanish prognozlariga ko'ra, rivojlangan iqtisodiyotlarda integratsiyalashgan qishloq xo'jaligi modellari ehtiyoji kelgusi o'n yillikda milliardlab dollar miqyosiga yetishi, yiliga o'rtacha 7-8 foizlik o'sish sur'ati bilan rivojlanishi kutilmoqda.

Global darajadagi noaniqliklar va beqarorlik fonida oziq-ovqat xavfsizligiga oid muammolar chuqur o'rganilishini, bu boradagi ilmiy izlanishlarning yanada kengaytirilishini talab etadi. Aholi sonining ko'payishi, talabning oshishi, qishloq

¹ <http://mcx.ru>

xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari sonining ortishi va resurslar iste’molining ko‘payishi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi, agrar soha faoliyatida samaradorlikni oshirish uchun qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda ilmiy tadqiqotlardan samarali foydalanishni talab qiladi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida ham ko‘plab islohiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ixtisoslashgan dehqonchilik korxonalarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, oziq-ovqatga bo‘lgan talabni qoplash, fermerlarni qo‘llab-quvvatlash va tarmoq rivojiga rag‘batlantirish choralari, siyosiy e’tibor va boshqa ko‘plab tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda. Aholi ehtiyojlarining ortib borayotgani, qishloq xo‘jaligi bozorining shakllanishi hamda bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi natijasida qishloq xo‘jaligi korxonalari va ularning faoliyati milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos belgilaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayonda qishloq xo‘jaligi rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham sohaning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylanib bormoqda. Ayniqsa, 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq “... taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalardan biri milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha qishloq xo‘jaligi samaradorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish, ya’ni agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq joylarida yashayotgan aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko‘paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sish sur’atini kamida 5 foizga yetkazish”² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish ilmiy takliflar va o‘rta muddatli prognozlarni ishlab chiqishga doir tavsiyalarni shakllantirish bo‘yicha tahliliy funksiyani agrar sohaning tuzilmaviy o‘zgarishlari, rivojlanish omillari va istiqbollari to‘g‘risidagi har tomonlama statistik ma’lumotlarni taqdim etuvchi diagnostik funksiyasi bilan uyg‘unlashtiradi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmoni. www.lex.uz.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi 104-sonli “Qishloq xo‘jaligi statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 7-iyundagi 285-sonli “2020–2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini samarali amalga oshirishni tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari milliy fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi — “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma’naviy, axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy jihatdan rivojlanishi va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi”ga muvofiq ravishda amalga oshirilmoqda. “Rivojlanish” dasturi doirasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi “Demokratik jamiyatni yanada rivojlantirish, madaniyatni shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va liberallashtirishning ilmiy asoslarini mustahkamlash” hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

Agrar sektor korxonalarining ko‘p omilli statistik tadqiq etish, samarali boshqarish strategiyasini shakllantirish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini va faoliyat yuritish samaradorligini oshirish, tizim boshqaruvini ekonometrik modellarni tuzish asosida optimallashtirishga

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Stenford University, Princeton University (AQSh), Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya) va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti web-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

yoʻnaltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy taʼlim muassasalari, jumladan, Stenford University, Princeton University, Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Fargʻona davlat universiteti (Oʻzbekiston Respublikasi)da olib borilmoqda.

Globallashuv sharoitida agrar sektorning faoliyatini innovatsion rivojlantirish boʻyicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: agrar sektorning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-mexanizmi ishlab chiqilgan, qishloq xoʻjaligi korxonalari faoliyat yuritish samaradorligini zamonaviy statistik usullarda integral baholash uslubi takomillashtirilgan, tizim boshqaruvini optimallashtirish uchun zarur tashkiliy oʻzgarishlarning taʼsiri ekonometrik usullarda baholangan (Stenford University, Princeton University, AQSh; Universidad de Las Palmas de Gran Canaria, Ispaniya; University of Munster, Germaniya); agrar sektor faoliyatini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanish, isteʼmolchilarning qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talablarini qondirish jihatlari asoslangan (Korea Development Institute, Janubiy Koreya); qishloq xoʻjaligi tarmogʻidagi jami daromadlar va YaIM hajmining oʻzgarish tendensiyalari oʻrtasidagi bogʻliqlik aniqlangan (Gazi University, Turkiya), agrar sektorning mamlakat va hududlar iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy taʼsir etishi, qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari asoslangan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Fargʻona davlat universiteti).

Jahonda globallashuv sharoitida agrar sektorning barqaror rivojlantirishni takomillashtirish boʻyicha bir qator, jumladan, quyidagi yoʻnalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: mintaqalarda qishloq xoʻjaligi tarmogʻida zamonaviy ekonometrik

va statistik usullarni qoʻllagan holda agrar sektor iqtisodiy samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish; qishloq xoʻjaligi mahsulot va xizmatlarini standartlashtirish va sifatini oshirish uchun jahon andozalariga mos tasniflarni amalga oshirish; qishloq xoʻjaligi eksport salohiyatini oshirish; qishloq xoʻjaligi infratuzilmasini takomillashtirish; agrar sektorda innovatsion strategiyalarni rivojlantirish; qishloq xoʻjaligi tarmogʻida iqtisodiy-statistik va ekonometrik uslublardan samarali foydalanish va h.k.lar.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Agrar sektorni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlarini xorijlik olimlardan L.Sfu, S.Fan, L.Chjou, J.M.Shurbax, S.Shiona, S.S.Shenoylar tomonidan tadqiq qilingan³.

Mustaqil Davlatlari Hamdoʻstligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan agrar sektorda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish, iqtisodiy modellashtirish va prognozlash masalalari L.V.Agarkova, I.A.Baranov, N.A.Popov, A.V.Afanaseva, M.A.Solomaxin, N.I.Grekov⁴ tomonidan oʻrganilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida qishloq xoʻjaligi tarmogʻining tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik tahlil etish hamda samaradorligini oshirish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash masalalari B.Berkinov, N.M.Soatov, Yo.A.Abdullayev, T.Sh.Shodiyev, A.Abdugʻaniyev, Gʻ.X.Qudratov, A.M.Joʻrayev,

³Лин Цфу, Цой Фан, Ли Чжоу. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. – М., 2001. С.68.; Jan Mathis Schopbach “Foreign direct investment in agriculture the impact of out grower schemes and large-scale farm employment on economic well-being in Zambia” Master of Arts, University of Zurich accepted on the recommendation of Prof. Dr. Rolf Kappel, examiner Prof. Dr. Isabel Gonther, co-examiner Prof. Dr. Jann Lay, co-examiner, diss. eth no. 22287 2014. – p. 21-28.; Susan Chiona, BSc “Technical and allocative efficiency of smallholder maize farmers in Zambia” A thesis submitted to the University of Zambia in partial fulfillment of the requirements of the degree of Master of Science in Agricultural Economics, The University of Zambia Lusaka, 2011. – p.64.; Sajna S. Shenoy. Food tourism and the culinary tourist. Clemson University, 2005.

⁴Агаркова Л.В. Формирование механизма устойчивого развития плодовоовощного подкомплекса: теория и практика. – Ставрополь: Ставролит, 2007. –С.168.; Баранов И.А. Совершенствование коммерческой работы торговых и заготовительных организаций потребительской кооперации. Автореф. дисс.д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2003. – С.39.; Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Дело и сервис, 2005. – С.56.; Афанасьева А.В. Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф.дисс. на соиск.канд. экон. наук. – Самара. 2008. –С.26.; Соломахин М.А. Основные направления совершенствования системы ведения садоводства в условиях развития агропромышленной интеграции. //Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции, 9-10 ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. Том 1. -С.153-159.; Греков Н.И. Основные направления и факторы интенсификации садоводства. //Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции, 9-10 ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. – Том 1. - С.164-166.

R.H.Husanov, A.Qodirov, F.Dusmatov, Q.Choriyev, N.S.Xushmatov, N.R.Asadulina, A.X.Burhonov, M.Mirzayev, Ch.Murodov, F.Nazarova, U.Umurzoqov, U.S.Muxiddinova, I.K.Jumayev, Sh.T.Ergasheva, M.Raxmatov⁵ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari agrar iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilmalar va samaradorlik masalalarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy o'rganishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo mazkur tadqiqotlarda milliy qishloq xo'jaligi tarmog'ining statistik tahlilini amalga oshirishda axborotlar bazasini takomillashtirish, ko'rsatkichlar tizimi va statistik hisobga olish masalalariga yetarli e'tibor berilmaganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-154-son "Milliy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining yalpi ichki

⁵ Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. 743 b; Abdullayev Yo.A. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2002. – 592 b.; Berkinov B.B., Axmedov U.K. Uy xo'jaliklari rivojlanishi va oila daromadlarini oshirish istiqbollari. – T.: Fan va texnologiya, 2013.-144 b; Шадиев Т.Ш. Экономические модели развития сельского хозяйства. – Т.: Fan, 1986. -S.168.; Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti.–T.: Adabiyot jamg'armasi. 2007. –340 b.; Quدراتов G'.X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston g'allachiligidagi iqtisodiy munasabatlar. Monografiya. – T.:Iqtisod-moliya. 2006. –B. 250.; Кудратов F.X., Акрамов Э. Реформирование сельского хозяйства Республики Узбекистан: задачи принципы и основы направления реформ. //Сельское хозяйство Узбекистана. – Т., 2000. № 6. –С. 2-4.; Жўраев А.М., Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. – Т.: Узбекистан, 2002. –С.766.; Xusanov R.X., Do'stmurodov R. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda Andijon tajribasi. – T.: Yangi asr avlodi. 2008. –49 b.; Кадыров А.М., Дусматов Ф.Д. Инновационные инвестиционные факторы развития агропромышленного комплекса. – Т.: ИЭАНРУз, 2009. – С.52.; Choriyev Q.A., Xushmatov N.S. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish. – T.: Sharq, 2002. – 132 b.; Асадулина Н.Р. Механизм регулирования эффективности плодовоощного комплекса Республики Узбекистан на основе логистического подхода. Дисс.на соис. учен. степ. канд. экон. наук. – Т., 2006.– С.158.; Burhonov A.X. Turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.– T.: O'zBIITI, 2000. –117 b.; Mirzayev M.M. Mevali daraxtlardan yuqori hosil yetishtirish. – T., 2006. R.R.Shreder ITI–B.100.; Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Iqt.fan. dokt. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2001. –46 b.; Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. – T., 2001.- 290 b.; Умурзаков У.П. Пути повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики (на материалах Республики Узбекистан). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. д-ра экон. наук. – Т., 2003. – С.43.; Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T., 2010. –36 b.; Jumayev I.K. Fermer xo'jaliklari rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ekonometrik bashoratlash. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T., 2011. –43 b.; Ochilov S., Ergasheva S. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. –T., 2008. –192 b.; Рaxmatov M. Развитие плодовоощного подкомплекса в Ферганской области. Автореф. дисс. на соис. кан. экон. наук. – Т., 1989. – С.24.

mahsulot o'sishiga ta'sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlarning statistik baholash uslubi-yotini takomillashtirish hamda istiqbollarini prognozlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agrar sektorning tarkibiy o'zgarishlarini statistik tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslarini yoritish;

qishloq xo'jaligini milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ulardagi tarkibiy o'zgarishlarni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishi va asosiy tendensiyalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik usullarda tahlil qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

mamlakat agrar sektorida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning tarkibiy tuzilmasining ko'p omilli statistik tahlilini amalga oshirish;

xorijiy mamlakatlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi ilg'or tajribalarini qiyosiy o'rganish asosida, ulardan mahalliy darajada samarali foydalanish yo'llari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy rivojlanish holati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligini statistik jihatdan tahlil qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi faoliyatini tarkibiy tuzilmasini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi va uning axborotlar bazasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar tayyorlash;

qishloq xo'jaligi faoliyati istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha prognoz variantlarini tuzish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo‘jaligining tarkibiy o‘zgarishlarini statistik baholash, ko‘p omilli tahlil qilish jarayonlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy indekslar, korrelyatsion-regression tahlil, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligi statistikasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrar sektordagi iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni muntazam va tizimli hisobga olish, tahlil qilish, modellashtirish va prognozlash orqali qishloq xo‘jaligining holati va rivojlanish dinamikasi to‘g‘risida obyektiv, xolis va taqqoslama ma’lumotlar bazasini shakllantirish jarayonlari tarmoq tarkibiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar jihatidan takomillashtirilgan;

agrar tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash metodologiyasini Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ga ko‘ra iqtisodiy indeks usulini joriy etish asosida takomillashtirish orqali subtarmoqlar o‘rtasidagi dinamik o‘zgarishlar ta’sirida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yalpi hajmini oshirish ($MYaH_{qx} = 8\%-12\%$) chegarasi asoslangan;

qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda yuqori samarali subyektlarni tanlash imkonini beruvchi metodologik asos fermer, dehqon, klaster, agrofirma va kooperativlar kabi tashkiliy-huquqiy hamda mulkchilik shakllarini inobatga oluvchi jamlanma statistik ko‘rsatkichlar orqali agregatlangan tahlil usuli asosida takomillashtirilgan;

qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tuzilmaviy siljishlar samaradorligini oshirish maqsadida ekin maydonlarining agroiqlimiy va resurs salohiyatiga mos ravishda qayta joylashtirishni modellashtiruvchi imitatsion tizim orqali ekinlardan olinadigan

o'rtacha hosilni ($O'He = 10\%-15\%$) hamda agroiqtisodiy samaradorlikni ($Sa = 20\%$)ni oshirish imkoniyati asoslangan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'idagi asosiy rivojlanish tendensiyalari bo'yicha natijaviy ko'rsatkichlarning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy statistika amaliyotida mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlarni baholovchi ko'rsatkichlardan samarali foydalangan holda agrar sektor faoliyatini kompleks statistik baholash bo'yicha integral ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ining hozirgi davrdagi dinamikasini tizimli statistik tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, dinamik jarayonlarni baholash qamrovini kengaytiruvchi jamlama statistik ko'rsatkichlaridan xo'jaliklar faoliyatida foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'i tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik jihatdan o'rganish, ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyatini statistik baholash va iqtisodiy samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari baholangan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion rivojlantirish yo'llari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

statistik kuzatish usullarini keng qo'llash hisobiga qishloq xo'jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatini statistik hisobga olishning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, uslubiy tadqiqotlari asosida, foydalanilgan, axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi hududlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga doir qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni vakolatli vazirlik, tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, qishloq xo‘jaligi faoliyatini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar qabul qilish, tarmoqdagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etish va ularni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, agrar sektordagi statistik hisob-kitoblarni takomillashtirishda uslubiy jihatdan asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishida qishloq xo‘jaligi sohasini statistik tadqiq qilish usullari, ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatining zamonaviy ilg‘or innovatsiyalarini joriy etgan holda statistik jihatdan baholash, ilmiy-nazariy xulosalaridan oliy o‘quv yurtlarida “Statistika”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Ekonometrika asoslari” hamda “Iqtisodiy statistika” fanlaridan o‘quv dasturlari ishlab chiqishda, o‘quv adabiyotlari tayyorlashda hamda ta’lim jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agrar sektorda tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash va ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligi statistikasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrar sektordagi iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni muntazam va tizimli hisobga olish, tahlil qilish, modellashtirish va prognozlash orqali qishloq xo‘jaligining holati va rivojlanish dinamikasi to‘g‘risida obyektiv, xolis va taqqoslama ma’lumotlar bazasini shakllantirish jarayonlari tarmoq tarkibiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar jihatidan takomillashtirilgan. Ushbu nazariy va uslubiy ma’lumotlardan oliy ta’limning “Statistika” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Moliyaviy statistika” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 538-388-sonli o‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

agrar tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash metodologiyasini Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ga ko‘ra iqtisodiy indeks

usulini joriy etish asosida takomillashtirish orqali subtarmoqlar o'rtasidagi dinamik o'zgarishlar ta'sirida qishloq xo'jaligi mahsuloti yalpi hajmini oshirish ($MYaHqx = 8\%-12\%$) chegarasini asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi agrar sektorda amalga oshiriladigan tadbirlarning samaradorligini oshirishda, xususan, mamlakatimizda statistika tizimini tubdan isloh qilish maqsadida olib borilayotgan islohotlar sifatida 2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasining agrar sektor yo'nalishidagi vazifalarining ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda yuqori samarali subyektlarni tanlash imkonini beruvchi metodologiyani fermer, dehqon, klaster, agrofirma va kooperativlar kabi tashkiliy-huquqiy hamda mulkchilik shakllarini inobatga oluvchi jamlanma statistik ko'rsatkichlar orqali agregatlangan tahlil usuli asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853-son Farmoniga muvofiq qishloq xo'jaligi subyektlarining rivojlanish darajasi, ularning asosiy tendensiyalaridagi tarkibiy o'zgarishlarini kompleks statistik baholash imkoniyatini yaratgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ida tuzilmaviy siljishlar samaradorligini oshirish maqsadida ekin maydonlarining agroiqlimiy va resurs salohiyatiga mos ravishda qayta joylashtirishni modellashtiruvchi imitatsion tizim orqali ekinlardan olinadigan o'rtacha hosilni ($O'He = 10\%-15\%$) hamda agroiqtisodiy samaradorlikni ($Sa = 20\%$) oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil

30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-387-sonli qaroriga asosan mamlakatimizda ekin maydonlari tuzilmasini takomillashtirish, iqtisodiy-matematik modellarni ishlab chiqish hamda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini yaratgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'idagi asosiy rivojlanish tendensiyalari bo'yicha natijaviy ko'rsatkichlarning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoniga muvofiq statistik tahlil va prognozlashning zamonaviy uslublaridan samarali foydalanish darajalarini kengaytirish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ish natijalari 9 ta xalqaro va respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xalqaro jurnallarda 3 ta, mahalliy jurnallarda 9 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 213 betni tashkil etadi.